

VOLUME 1 ISSUE 10

## "CONFERENCE ON UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH 2023"

zenodo



ResearchGate



## OUR FIELDS

- Exact Sciences
- Natural sciences
- Medical sciences
- Technical sciences
- Economics
- Philological sciences
- Pedagogical sciences
- Social and humanitarian sciences
- Psychological sciences
- Arts and cultural sciences
- Physical education and sports



+998 (88) 808-21-07



<http://universalpublishings.com>



"RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION HOUSE" MCHJ

# "CONFERENCE ON UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH 2023"



+998 (88) 808-21-07

<http://universalpublishings.com>

VOLUME 1, PART 10



«Conference on Universal Science Research 2023» ilmiy konferensiyasi:

31.10.2023 yil.

Ushbu to'plamda «Conference on Universal Science Research 2023» ilmiy konferensiyasi 2023 yil 1-soni 10-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, **Zenodo**, **Open Aire**, **Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

**Asos:** O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Konferensiya materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktarantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Konferensiya materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.



**“RESEARCH SCIENCE AND  
INNOVATION HOUSE” MCHJ**



## TAHRIRIYAT

**Bosh muharrir:** Eshqarayev Sadridin Chorievich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrasи mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O‘zbekiston.

### **Mas’ul kotib:**

Boboyorov Sardor Uchqun o’g’li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

### **Nashrga tayyorlovchi:**

Eshqorayev Samariddin Sadridin o’g’li Termiz muhandislik-texnologiya instituti magistranti

## TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI

**Texnika fanlari muharriri,** Eshqarayev Ulug‘bek Chorievich – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasи dotsenti, texnika fanlari nomzodi, Denov, O‘zbekiston.

**Texnika fanlari muharriri** Babamuratov Bekzod Ergashevich – Termiz davlat universiteti fizik kimyo kafedrasи dotsenti, falsafa fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Kimyo fanlari muharriri** Mirabbos Xojamberdiev Ikromovich- Berlin Technische Universität dotsenti, kimyo fanlari doktori, Berlin, Germaniya

**Kimyo fanlari muharriri,** Eshqurbanov Furqat Bozorovich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, kimyo fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Iqtisodiyot fanlari muharriri** Otamurodov Shavkat Tillayevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti prorektori, iqtisod fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Ijtimoiy va gumanitar fanlar muharriri,** Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, ijtimoiy-gumanitar fanlar doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Tibbiyot fanlari muharriri** Otamurodov Furqat Abdukarimovich, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali direktori, Termiz, O'zbekiston tibbiyot fanlari falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston.

**Biologiya fanlari muharriri** Nurova Zamira Annakulovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali. Termiz, O'zbekiston, biologiya fanlari doktori, dots., Termiz, O'zbekiston.

**Tibbiyot fanlari muharriri** Turabayeva Zarina Kenjabekovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, tibbiyot falsafa fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

**Sotsiologiya fani muharriri** Eryigitova Lobar Qodirovna Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa sotsiologiya fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

**Filologiya fanlari muharriri** Jo'rayeva Ramziya Abdurahimovna Qo'qon davlat pedagogika instituti. Qo'qon, O'zbekiston filologiya fanlari fanlari doktori (PhD), katta o'qituvchi.

**Fizika-matematika-fanlari muharriri** Bobamuratov Ulug'bek Erkinovich Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa fanlari doktori, fizika-matematika-fanlari, Termiz, O'zbekiston.

**Tibbiyot fanlari muharriri** Axmedov Kamoliddin Xakimovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son davolash fakulteti dekani, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Tibbiyot fanlari muharriri** Vohidov Alisher Shavkatovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi va bolalar urologiyasi kafedrasi mudiri Tibbiyot fanlari doktori, professor

**Gumanitar fanlar muharriri** Rahmonov Abduqahhor Abdusattorovich Ma'naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo'yicha direktor o'rinnbosari, falsafa fanlari doktori (PhD)

## EKOLOGIK OMILLAR TA'SIRIDA TUPROQ QOPLAMIDAGI O'ZGARISHLAR

**Abduvoitov Lochinbek**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti 4-bosqich talabasi**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ekologik omillar ta'sirida tuproq qoplamidagi o'zgarishlar o'r ganilgan va tahlil qilingan

**Tayanch so'zlar:** Tuproq qoplami, tuproqning sho'rlanishi, unmdorligining kamayishi, eroziyaga uchrashi, ekinlar hosildorligini oshirish, tuproq xossalari.

Yer resurlari inson hayotida inson va boshqa barcha tirik mavjudotlar uchun yashash makoni, yer osti boyliklari zahirasi hisoblanadi. Yer yuzida umumiyligi maydoniga nisbatan 28 % i o'rmonlar, 17 % i tabiiy o'tloqzor va yaylovlar, 10 % haydaladigan yerlar, 45 % i esa cho'l, yarim cho'l va adirlar tashkil etadi. Ziroatchilik 10 % maydon foydalaniladi va jahon aholisi jon boshiga o'rtcha 0,5 ga yer to'g'ri keladi. Tuproqda milliardlab sodda va murakkab jonivorlar hamda o'simlik turlari hayot kechiradi. Ularning tuproqda parchalanishi oqibatida organik birikmalar mineral moddalarga aylanadi. Shuningdek, u turli va xilma-xil og'ir kasalliklarni tarqatuvchi (sil, vabo, ich terlatma, o'lat, qaroson va boshqa.) va qo'zg'atuvchi mikroblar manbai hamdir.

Tuproq kishilik jamiyatining taraqqiyot bosqichlarida katta rol o'ynagan. Shu bois dehqonchilikda u asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Zero, inson barcha zarur moddiy boyliklari shu tuproqda yetishtirib hayot kechiradi. Insoniyat tarixi davomida 2 mlrd. hektaridan ortiq unum dor yer maydoni yaroqsiz holga keltirilgan. Bundan tashqari har yili dunyo miqyosida tuproqning nurashi, sho'rlanishi, qishloq xo'jalik hisobidan chiqarilish oqibatida 5-7 mln. ga maydon tashlandiq holatga kelmoqda.

Sug'oriladigan mintaqalarda tuproqning sho'rlanishi asosiy ekologik muammolardan biri hisoblanadi. Bu qishloq xo'jaligida ekinlarni sug'orishning noto'g'ri tizimini qo'llash va yer osti suvlari sathining ko'tarilishi oqibatida ro'y bermoqda. Bunday hollarda dastlab birlamchi, so'ngra esa iikilamchi sho'rlanish kuzatiladi. Ikkilamchi sho'rlanishda suv kapillyarlar orqali yuzaga ko'tarilishi natijasida tuz birikmalar tuproqning yuqori qatlamida ushlanib qolinadi. Bundan tashqari yerlarimiz me'yordan ortiqcha sug'orilganda ham yer osti suvlari erigan tuz birikmalar bilan u yoki bu darajada sho'rlanadi. Ikkilamchi sho'rlanish o'ta havfli hisoblanadi va tiklab bo'lmas darajada katta zarar keltiradi. Bunga Osiyo, Afrika, Amerika kabi qit'alardagi qator davlatlarni misol qilish mumkin. Bizda

sho'rlanishning oldini olish uchun ariq-zovurlar qazilib, kanallar o'tkazilmoqda va natijada yer osti sizot (zax) suvlari ana shu kanallar orqali chiqarib yuborilmoqda.

Tuproqlarimiz shuningdek, botqoqlanish jarayonlariga ham moyillik sezadi va bu odatda tarkibida nam ko'p bo'lgan, yer osti suvlari juda yaqin joylashgan tuproqlarda uchraydi. Botqoqlanish hollari shuningdek, ko'l, daryo uzanlari va suv omborlari atrofida ham kuzatiladi. Bularning oldini olish maqsadida maxsus meliorativ tadbirlar amalga oshiriladi. Qishloq xo'jaligiga cho'llanish jarayoni ham katta ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Cho'llanish deganda biz tabiiy jarayonlar va inson faoliyati natijasida yerlarda biologik mahsuldarlikning pasayishi yoki tabiiy ekotizimning degradatsiyalanishi tushuniladi. Bunday hol o'ta xavfli bo'lib, ekologik holatga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Cho'llanish oqibatida ekologik tizimlarda o'z-o'zini tiklash butunlay izdan chiqishga olib kelishi mumkin.

Shu o'rinda ko'chma (harakatdagi) qumlar, barxanlar yo'lini to'sish, yo'l atroflari, dara va dala chetlari hamda trassalar yonida daraxtzorlarni barpo qilish, yashil qalqon mintaqasini yaratish va boshqalar muhim yahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, tuproq va zahira yerlar o'z-o'zidan sun'iy ravishda yomonlashib yoki yo'q bo'lib ketishi ham mumkin. Masalan, shahar, sanoat, yo'l, ko'priklar, suv havzalari qurilishi oqibatida unumdon, eng yaxshi yer maydonlari qishloq-xo'jaligida foydalanishdan chiqib ketmoqda.

Navbatdagi yana bir muhim masala tuproq va yer resurslarini ifloslanishdan asrash va ularni muhofaza qilish hisoblanadi. Keyingi yillarda fan va texnika taraqqiyoti qishloq xo'jalik tarmog'ining yanada rivojlanishiga katta hissa qo'shamoqda. Natijada, mahsulot yetishtirish hajmi ancha ko'paydi, dehqonchilik asosiy tarmoqqa aylanmoqda. Shu munosabat bilan ekologik tizimda qanday o'zgarishlar sodir bo'lishini biz avvaldan bilmog'imiz zarur ko'rindi. Afsuski, hozirda hosildorlikni oshirish maqsadida sanoat yo'li bilan ishlab chiqarilgan ma'dan o'g'itlar va zaharli moddalardan me'yordan ortiq darajada foydalanmoqdamizki, bularning barchasi tuproq, atrof-muhit, suv havzalarining ifloslanishi, o'simlik va hayvonot turlarining kamayishiga sabab bo'lmoqda.

Bunday hol tuproqda chirindi miqdorining kamayishiga sabab bo'ladi. Umuman esa qishloq xo'jaligini zo'r berib kimyolashtirish (bu yaqin o'tmishdan ma'lum) tuproqning turli kimyoviy birikma va moddalar bilan ifloslanishiga olib keladi. Ayniqsa, begona o'tlar, qishloq xo'jalik ekinlari kasallik va zararkunandalariga qarshi ishlatiladigan pestitsidlar, gerbitsidlar, insektitsidlar hamda defoliantlarni me'yordan ko'p qo'llash atrof-muhitga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Pestitsidlar tuproqda foydali mikroorganizmlar salmog'ini kamaytirib, patogen

organizmlarning ko‘payishiga yo‘l ochib beradi. Zaharli kimyoviy moddalardan DDT ishlatilganda 20 yildan so‘ng ham uning tuproqda bo‘lishi isbotlangan. Ular shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari orqali ham inson va boshqa barcha tirik jonivorlar organizmlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Hozirda jahon olimlari, organizmga qisqa muddatda ta‘sir ko‘rsatib, so‘ngra parchalanib ketadigan biotsidlar ustida ish olib bormoqdalar. Bundan tashqari shuni ham ta‘kidlash joizki, keyingi yarim asrda mamlakatimiz miqyosida yangi yerlarning jadal o‘zlashtirilishi navbatdagi ekologik muammolarning sodir etilishiga sabab bo‘lmoqda. Yerlarning sho‘rini yuvish, ariq-zovurlar tizimini yaxshilash, ikkilamchi sho‘rlanishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning izdan chiqishi joylarda o‘simliklar dunyosi va hayvonot olami, ekologik muhitini turli darajada o‘zgartirib yubordi. Ekinlardan muttasil hosil olishni ko‘paytirish o‘z o‘rnida, tuproq holatini har tomonlama yaxshilab borishni taqozo etadi.

Shu bois hozirda ekologik muammolarni hal qilishda qishloq xo‘jaligini ekologilashtirish muhim omil hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning qishloq xo‘jalik xodimlari kuniga bag‘ishlangan tatanali marosimdagи nutqi. Toshkent, “Xalq so‘zi”gazetasi, 2017, 12-dekabr.
2. O‘zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. Toshkent, “Xalq so‘zi”, 2020 yil, 25 yanvar.
3. Botirov X.F.va boshqalar. Dehqonchilik va ekoliya.” O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi” jurnali, 3-son, 2010, b.28.
4. Shirinboev Sh.Sh., Botirov X.F.Tabiyy bioxilmaxillik. “Ziyokor” jurnali, Samarqand, 2013, 2-son, b.57-59.
- 5.Xoliqulov Sh.T., Abdumalikov J.Q. Oziq-ovqat xavfsizligini barqarorlashtirishda tuproq unumdorligining roli//Oziq-ovqat xavfsizligi:milliy va global omillar (Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari), SamDU,Samarqand,2019,b.220-222.

## VOLUME-1, ISSUE-10

### Molibden metalini AM-2B anioniti yordamida sorbsiyasi

A.P.Hamidov Termiz muhandislik texnologiya instituti assistenti.

[azimhamidov75c833ma@gmail.com](mailto:azimhamidov75c833ma@gmail.com)

#### ANOTATSIYA

Molibden asosidagi materiallardan foydalanish muddati uzoqligi sababli sanoatning texnogen chiqindilari ko‘rinishidagi molibden tarkibli xom-ashyolarni turli noan’anaviy metodlar yordamida qayta ishlashni oshirish ehtiyoji yuzaga keldi. Jahonda molibdenga bo‘lgan ehtiyojning ortish sur’ati yiliga 6-8% ni tashkil etadi. Shunga ko‘ra murakkab aralashmalar tarkibidan molibdenni sorbsion ajratish va unga turli omillar ta’sirini o‘rganish.

**Kalit so’zlari:** AM-2B ioniti, stirol, divinilbenzol asosilagi makrog‘ovakli sopolimer, Purolite A-100/2412 ; Amberlite IRA 93/92 ; Dowex 66; Levatit Hp 64; Rossion-12; AN-18105.

**Kirish:** Molibdenli ruda genetik jihatidan 2 sinfga ekzogenli va endogenlilarga bo‘linadi. Har qaysisi rudaning hosil bo‘lishi, rudali jism shakli, yo‘ldosh minerallar va xalatsit jinclar kabi harakteriga ko‘ra qator formatsiyalarga bo‘linadi.

Nisbatan sanoat ahamiyatiga ega kvars molibdenit oltingugurtli, molibdenit-sheelitli va kvars-molibdenit-xalkopirit-oltingugurt formatsiyalaridir. Barcha uchtasi endogenli kelib chiqishlidir. Ko‘mirli kremniyli va ko‘mirli formatsiyalar keng tarqalgan. Lekin u rudalar kambag‘al bo‘lib ,ulardan molibdenni chiqarib olish qiyin. Uranli va qo‘rg‘oshinli molibden konlarini topish ham sanoat ahamiyatiga ega emas.

Molibden konstruksion po‘latlar uchun o‘zining favqulodda muhim xossalari bilan alohida o‘rin tutadi. Juhon miqqosida ishlab chiqariladigan molibdenning 80% qora metallurgiyada, jumladan, zanglamaydigan (tarkibida 4% gacha molibden bo‘lgan) po‘latlar, kesuvchi po‘latlar, superqotishmalar, cho‘yan ishlab chiqarishda va asbobsozlikda (tarkibida 9,5 % gacha molibden bor) ishlatiladi. Juhon bozorida molibden yadro energetikasida yangi reaktorlarda molibden tarkibli po‘latlardan chidamlı quvurlar tayyorlanishi bilan yuqori qiymatga ega. Yangi avlod atom elektr stansiyalarida 180-230 tonnagacha molibden ishlatiladi. Foydalanilgan yadro yoqilg‘isini ko‘mish uchun 11 mingta konteyner tayyorlashda 15 ming t. molibden talab etiladi. Shuningdek, molibdenden neftni tozalashda katalizator sifatida keng foydalanimoqda, jumladan, 95% ga yaqin neftni qayta ishlash korxonalarida molibden

## VOLUME-1, ISSUE-10

tarkibli katalizatorlardan foydalaniladi. Shuning uchun molibdenni XXI asr metalli deyish mumkin. Molibden birikmalarini, uning olinish usullarini o‘rganish kimyo fani, kimyo, metallurgiya sanoatlari uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.


**AM-2B** – kuchsiz asosli anionit bo‘lib, stirol va divinilbenzol asosilagi makrog‘ovakli sopolimer tuzilishiga ega. Undan asosan gidrometallurgiyada oltinni eritmalardan ajratish va konsentrash, murakkab aralashmalardan rangli va nodir metallarni sianidli komplekslarini ajratib olish, kislotali eritmalardan molibdenni ajratish uchun foydalaniladi.

Analoglari : Purolite A-100/2412 ; Amberlite IRA 93/92 ; Dowex 66; Levatit Hp 64; Rossion-12; AN-18105.

### AM-2B anionitining fizik – kimyoviy xossalari

1-Jadval


Polimer matritsa	Sterol va divinilbenzolning g‘ovak sopolimeri
Funksional guruhlari	Benzildimetilamin va benziltrimetilammoniy
Tashqi ko‘rinishi	Tiniq bo‘limgan sferikoq-sariq rangli granulalar
Havoda quritilgan ion formadagi granula o‘lchami	0,63-1,6 mm 1,0-3,0 mm xloridli
To‘liq almashinish hajmi	1,1 mg-ekv/sm <sup>3</sup>
Solishtirma sirti	40m <sup>2</sup> /g
Maksimal ish harorati	70 °S
Mexanik mustahkamligi	98 %
Bo‘kuvchanligi	3,311



**1-rasm. IQ-spektrlar: ammoniy molibdat (a), rux (b), temir (v), kobalt (g) va nikelning (d) xloridlari:**

- 1 – eritmalarini sorbsiya qilingandan keyin ajratilgan AM-2B anioniti: ammoniy molibdat (a); rux (b); temir (v); kobalt (g); nikel (d) xloridlari;
- 2 – tuzlar: ammoniy molibdat (a); rux (b); temir (v); kobalt (g); nikel (d);
- 3 – sianidli eritmalar: molibden (a); rux (b); temir (v); kobalt (g); nikel (d).

Anionitning to‘liq almashinish hajmi uni statik sharoitda HCl eritmasi bilan neytrallab, 1 g. quruq va bo‘kkan anionitga nisbatan ekvivalentlarda ifodalandi. Anionitning anion almashinish reaksiyasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:



1 g quruq anionitning to‘la yutish hajmi quyidagi formula bo‘yicha hisoblandi:

$$E_A = \frac{10 / a \cdot V_0 - V_b /}{a \cdot g \cdot / 100 - W /}$$

Bu yerda,  $E_A$ -anionitning to‘liq almashinish hajmi, mg-ekv/g.,  $a$  – titrlash uchun olingan filtrat miqdori, ml,  $V_0$  – anionitdan o‘tkazilgan 0,1 n. li HCl eritmasining miqdori, ml,  $V_b$  – filtratning umumiyl miqdori, ml,  $g$ -almashinish hajmini aniqlash uchun olingan quruq anionit massasi, g.  $W$ -anionit namligi, % (anionitni 3 soat davomida 95-100 °S da quritish yo‘li bilan aniqlanadi).

## VOLUME-1, ISSUE-10

Anionitni qayta tiklash uchun NaOH, KOH va NaCl ning kuchsiz eritmasidan foydalanildi.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. B.A.Raxmanov F.B.Eshqurbanov B.B.Ahatov A.P.Hamidov Xondiza polimetallkonidagi olingan ruda maydalanish darajasining ajratiladigan mis konsentrati unumiga ta'siri KOMPOZITSION MATERIALLAR ilmiy texnikaviy va amaliy jurnal №3 2022-yil 144-147 betlar
2. A.P.Hamidov B.Ch.Tursunov S.Z.Xodjamkulov Study of the Process of obtaining Sodium Dihydrogen Phosphate Monohydrate from Central Kyzylkum Phosphate. INTERNATIONAL JOURNAL OF CULTURE AND MODERNITY ISSN2697-2131 volume 15 2022-yil 32-35 betlar
3. A.P.Hamidov, S.Z.Xodjamkulov,S.A.Tursunov Mahalliy fosfaritlar asosida olingan ekstraktsion fosfat kislotasini bug'latish yo'li orqali konsentrash JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH 1-tom 2-son
4. A.P.Hamidov, S.Z.Xodjamkulov, S.A.Tursunov J.B.Normurotov M.R.O'ralova Kaliyli o'g'itlarda ozuqavviy moddalar tahlili JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH 1-tom 2-son 83-86 bet
5. A.P. Hamidov.O.X. Tursunov. Litiy-ionli batareyalar uchun litiy birikmalarini olishni mahalliylashtirish ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ международный научный электронный журнал. Выпуск журнала №22 част-6-июнь-2023

## VOLUME-1, ISSUE-10

### O'ZBEK LEKSIKOGRAFIYASIDAGI SOTSIAL MA'NOLI SO'ZLARNING SHAKLIY STRUKTUR TAVSIFI

Qobilova Mahbuba Mo'minjonovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

tayanch doktoranti

[gobilovamahbuba0702@mail.com](mailto:gobilovamahbuba0702@mail.com)

tel: +998919100795

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ("O'zbek tilining izohli lug'ati" 2 va 3-tomidagi ot so'z turkumiga oid) sotsial semali leksemalarning struktur tavsifini o'r ganish orqali milliy va o'zlashma terminlardan iborat sotsial semali terminologiyaning shaklga oid xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Termin, leksika, sotsial sema, juft termin, qo'shma termin, sodda termin

### DESCRIPTION OF THE FORMAL STRUCTURE OF SOCIALLY RELATED LEXEMAS IN THE EXPLANATORY DICTIONARIES OF THE UZBEK LANGUAGE

**Abstract:** In this article (regarding the noun-word group in Volume 2 and 3 of the "Explanatory Dictionary of the Uzbek Language"), by studying the structural description of social-semous lexemes, an opinion is given about the form-related features of social-semous terminology consisting of national and adopted terms.

**Key words:** Term, lexicon, social term, double term, compound term, simple term

Terminlar til tizimining boshqa birliklaridan tarkibiy tuzilmasining murakkabligi bilan ajralib turadi. Masalan, umumtil leksikasida birikma shaklidagi birliklarning mustaqil atov birliklari sifatida qo'llanishi kuzatiladi. Ayrim hollardagi leksik bo'shliqlar bilan bog'liq bunday qo'llanishlarga duch kelishi mumkin<sup>1</sup>. Sotsial terminologiyasida mayjud terminlarning shakliy xususiyatiga ko'ra tavsifini amalga oshirishda so'zлarni sodda, qo'shma, juft guruhg'a ajratish asosida tahlil olib borish – an'anaviy tasnifga ko'ra tahliliy yondashuv hisoblanadi.

So'zlar struktur tarkibi jihatidan turlarga ajratilganda ko'p hollarda o'zak miqdoriga ko'ra sodda, qo'shma, juft, takror, murakkab, birikmali, tarkibli kabi terminlar qo'llangan holda guruhlanadi. Bundan tashqari, terminlarning morfologik

<sup>1</sup> Бу ҳақда қаранг: Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н.Ярцева. – Москва: Изд-во «Советская энциклопедия», 1990. – С. 258; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Изд. 2-е. – Москва: Изд-во «Советская энциклопедия», 1959. – С. 215; Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 49.

## VOLUME-1, ISSUE-10

jihatdan ot so‘z turkumiga oidligi formal-struktur jihatdan qisqartma shakldagi terminlar ham mavjudligi tabiiy holat ekanligini ko‘rsatadi.

“O‘zbek tili ilmiy-texnikaviy terminologiyasi masalalari” nomli asar muallifi N.Qosimov birdan ortiq komponentli ilmiy-texnik terminlarni qo‘shma, juft va gibrildagi turlarga ajratgan<sup>2</sup>. “Gibrildagi qo‘shma terminlarda asosan baynalmilal termin elementlar sifatida turli xil perefiksال xarakterdagi bog‘liq morfemalar ishtirok etadi. Masalan, *avtosanoat*, *gidrotuzlar*, *ultratovush* singari gibrildagi qo‘shma terminlarning birinchi komponentlari (avto-, gidro-, ultra-) ana shunday internatsional terminelementlar, ikkinchi komponentlari esa o‘zbekcha so‘zlardir”<sup>3</sup>. O‘ylashimizcha, gibrildagi terminlardagi ikkinchi komponent har doim ham o‘zbekcha bo‘lavermaydi. Masalan, *boyvuchcha*, *ammavachcha*, *zantaloq* kabi so‘zlar o‘zlashma qatlama birliliklaridir. Bunday jihat o‘zbek tili sotsial terminologiyasida ham uchraydi.

N.Qosimov tadqiqotida juft terminlar ham ajratilgan. Uning fikricha, “ikki mustaqil leksik ma’noli komponentlarning teng bog‘lanishi asosida tashkil topib, umumlashtirish, jamlik kabi ma’nolarni ifodalovchi so‘z – juft termin. Juftlashuvchi qismlar orasidagi tenglik munosabati yozuvda defis bilan ko‘rsatiladi. Talaffuzda bu qismlar teng fonetik cho‘qqiga ega bo‘ladi, ayni vaqtida, ikkinchi yagona leksik urg‘u yordamida leksema bo‘lib birlashadi<sup>4</sup>. Kitobda *elektron-optik*, *zichlagich-planka*, *universal-chopiq* kabi terminlar juft terminlar sifatida qayd etilgan. Juft terminlar sotsial terminlogiyada kam miqdorda bo‘lsa-da mavjud: *aziz-avliyo* kabi. Lug‘atda soatsial semali ot turkumiga oid juft terminlar ko‘p uchramaydi.

Sodda terminlar. Bunday terminlar yakka asosli, ularda yaxlit shakliy hamda semantik tuzilish aks etadi.

O‘zbek terminosistemasi mavjud sotsial sodda terminlar juda ko‘p uchraydi. Ularni ikki guruhgaga ajratish mumkin: sodda tub terminlar; sodda yasama terminlar.

5 jildli O‘TILning 2 va 3-tomida sodda tub terminlar ko‘p bo‘lib, ular milliy va o‘zlashgan qatlama birliliklari, maslan: *yazna*, *yetim*, *yesir*, *joriya*, *juvon*, *jujuq*, *zavja*, *zaifa*, *zang‘ar*, *ichkuyov*, *yigit*, *kampir*, *kaniz* va hokazo.

5 jildli O‘TILning 2 va 3-tomida sodda yasama terminlar *mo’ysafid*, *kundosh*, *kanizak*, *ichkuyov* va hokazo.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, O‘TILda berilgan sotsiologik terminlar tuzilishi jihatidan sodda, qo‘shma, juft, takror va hokazo bo‘lishi mumkin. Biz maqolada faqat

<sup>2</sup> Қосимов Н. Ўзбек тили илмий-техникавий терминологияси масалалари (Сўз ўзлаштириш ва аффиксация масалалари). – Тошкент: Фан, 1985. – Б.47

<sup>3</sup> Қосимов Н. Ўзбек тили илмий-техникавий терминологияси масалалари (Сўз ўзлаштириш ва аффиксация масалалари). – Тошкент: Фан, 1985. – Б.56

<sup>4</sup> Қосимов Н. Кўрсатилган асар. – Б. 68.

## VOLUME-1, ISSUE-10

sodda, qo'shma va juft terminlarni ko'rib chiqdik. O'zbek tili sotsial terminologiyasida mavjud gibrildi qo'shma terminlar ham O'TILda berilishi zamon talabi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

- 1.Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н.Ярцева. – Москва: Изд-во «Советская энциклопедия», 1990. – С. 258
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Изд. 2-е. – Москва: Изд-во «Советская энциклопедия», 1959. – С. 215
3. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 49.
4. Қосимов Н. Ўзбек тили илмий-техникавий терминологияси масалалари (Сўз ўзлаштириш ва аффиксация масалалари). – Тошкент: Фан, 1985. – Б.47

## VOLUME-1, ISSUE-10

### MIKROSUVO‘TLARINING MO‘TADIL O‘SIB-RIVOJLANISHINI TA’MINLOVCHI OZUQA MUHITI TANLASH

Tag‘aeva Muhayo Bafoevna

E-mail: [m.b.tagaeva@buxdu.uz](mailto:m.b.tagaeva@buxdu.uz)

Buxoro davlat universiteti

Toxirov Baxtiyor Baxshullaevich

Buxoro davlat universiteti

Zaribboyev Ma'rufjon Oybek o'g'li

Buxoro davlat universiteti

**Annotatsiya:** Maqlada chigitning unuvchanligini ta'minlash bo'yicha qishloq xo'jaligi ekinlari urug'larining umumiyligi unuvchanligiga qo'yilgan talablarga javob bergenligi uchun tadqiqotlarimiz *Botryococcus* avlodiga mansub *B.braunii*-AnDI-115 shtammi (*B.braunii*-AnDI-115) hamda *Chlorococcum* avlodiga mansub bo'lgan *Ch.infusionum* -AnDI-76 shtammlari (*Ch.infusionum* -AnDI-76) tanlashdan iborat.

**Kalit so'zlar:** *B.braunii*-AnDI-115 hamda *Ch.infusionum*-AnDI-76, Setlik ozuqa muhiti, Tamiya ozuqa muhiti, Modifikatsiyalangan Tamiya ozuqa muhiti №1, Modifikatsiyalangan Tamiya ozuqa muhiti №2, CHu - 13 ozuqa muhiti, Chu -10 ozuqa muhiti, Hoagland's ozuqa muhiti, BG-11 ozuqa muhiti, Bold basal ozuqa muhiti (Bold's Basal Medium (BBM)), zarruk ozuqa muhiti.

#### Kirish

Ilmiy manbalardan ma'lumki, algologik ob'ektlarni sanoat asosida etishtirish uchun uning maqsaddagi xususiyatidan kelib chiqqan holda tadqiqotlar rejalashtiriladi [Özdemir., 2016]. Bundan asosiy maqsad, algologik ob'ektning maqsaddagi xususiyatidan foydalanishda iqtisodiy ko'rsatkichlarni, jumladan, tayyor mahsulotning tannarxi arzonlashtirish, uning preparativ shaklini tanlash hamda qo'llash jarayonini qulaylashtirishdan iborat deb belgilanadi. SHuningdek, algologik ob'ektlarning xavfsizlik ko'rsatkichlarini aniqlash ham muhim jihatlardan biridir. Bu jarayon ko'proq sianobakteriyalar asosida biopreparatlarga tegishlidir.

Biotexnologiya tarmog'ining uzviy qonuniyatlaridan biri bo'lgan tanlangan mikroorganizmlar uchun maxsus ozuqa muhiti tarkibi ishlab chiqilishi lozim. Maxsus tanlangan ozuqa muhiti mazkur mikrob-ob'ektning mo'tadil o'sib-rivojlanishi, etarli darajada biomassa hosil qilishi, hosil qilgan biomassa tarkibidagi maqsaddagi moddalarni maksimal sintez qilishi kabi ko'rsatkichlarga javob berishi lozim.

Ilmiy manbalardan ma'lumki, mikrosuvo'tlari ozuqa muhiti tarkibiga bog'liq holda o'zining kimyoviy tabiatini namoyon etadi [Thomas G.Tornabene et al., 1985; Kiran et al., 2021]. O'simliklar o'sishini boshqarishda yuqori ko'rsatkichlarni namoyon

## VOLUME-1, ISSUE-10

etgan mikrosuvo‘tlarini yirik masshtabda etishtirish uchun bir qancha ozuqa muhitlari tarkiblari mavjud bo‘lib, mazkur ozuqa muhitlari ayni bir avlod yoki turga mansub bo‘lgan shtammlar uchun alohida ishlab chiqiladi [Muzaffarov i dr., 1984; Saikia et al., 2011; Alejandra Sánchez-Bayo et al., 2020; Charmaine Lloyd et al., 2021].

**Ishning maqsadi.** Biostimulyatorlik xususiyatini namoyon etuvchi *B.braunii*-AnDI-115 hamda *Ch.infusionum*-AnDI-76 shtammlarini yirik masshtablarda etishtirish uchun mo‘‘tadil ozuqa muhiti tanlashdan iborat.

**Foydalanilgan manba va usullar.** Chigitning unuvchanligini ta’minlash bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘larining umumiyligini unuvchanligiga qo‘yilgan talablarga javob berganligi uchun tadqiqotlarimiz *Botryococcus* avlodiga mansub *B.braunii*-AnDI-115 shtammi (*B.braunii*-AnDI-115) hamda *Chlorococcum* avlodiga mansub bo‘lgan *Ch.infusionum* -AnDI-76 shtammlari (*Ch.infusionum* -AnDI-76) asosida olib borildi.

Mikrosuvo‘tlarini o‘sirishda 10 ta turli xil tarkibli ozuqa ozuqa muhitlaridan foydalanildi (1-jadval).

### 2.2.1-jadval

#### Mikrosuvo‘tlarini o‘sirishda qo‘llanilgan ozuqa muhitlari

Nº	Ozuqa muhiti nomi	Ozuqa muhiti tarkibi, g/l	Manba
1.	<b>Setlik ozuqa muhiti</b>	KNO <sub>3</sub> -2,02; KH <sub>2</sub> PO <sub>4</sub> -0,34; MgSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O – 0,99; FeEDTA-0,0185; Ca(NO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> ×4H <sub>2</sub> O-0,01; H <sub>3</sub> BO <sub>3</sub> - 0,00309; MnSO <sub>4</sub> ×4H <sub>2</sub> O-0,0012; CoSO <sub>4</sub> -0,0014; CuSO <sub>4</sub> ×5H <sub>2</sub> O-0,00124; ZnSO <sub>4</sub> -0,00143; (NH <sub>4</sub> ) <sub>6</sub> Mo <sub>7</sub> O <sub>24</sub> ×4H <sub>2</sub> O-0,00184.	Hielscher-Michael et al, 2016
2.	<b>Tamiya ozuqa muhiti</b>	KNO <sub>3</sub> -5; FeSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-0,003; MgSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-2,5; KH <sub>2</sub> PO <sub>4</sub> -1,25; EDTA-0,037; mikroelementlar eritmasi (ml/l): 1 ml (ZnSO <sub>4</sub> ×4H <sub>2</sub> O - 0,222; MnCl <sub>2</sub> ×4H <sub>2</sub> O - 1,81; MoO <sub>3</sub> -176,4 mg/10 l; N <sub>3</sub> VO <sub>3</sub> - 2,86; NH <sub>4</sub> VO <sub>3</sub> -229,6 mg/10 l.	Safarov va boshqalar, 2020
3.	<b>Modifikatsiya yangangan Tamiya ozuqa muhiti №1</b>	KNO <sub>3</sub> -7,5; MgSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-3,75; KH <sub>2</sub> PO <sub>4</sub> -1,25; Ca(NO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> -0,15; FeSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-0,003; EDTA-0,185. Mikroelementlar eritmasi -1 ml: g/l: H <sub>3</sub> BO <sub>3</sub> -2,86; MnCl <sub>2</sub> ×4H <sub>2</sub> O-1,81; ZnSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-0,222; MoO <sub>3</sub> -176,4 mg/10l; NH <sub>4</sub> VO <sub>3</sub> -229,6 mg/10 l;	Mitishev i dr., 2017

## VOLUME-1, ISSUE-10

		CuSO <sub>4</sub> ×5H <sub>2</sub> O-0,01 mg/l; Co(NO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> ×4H <sub>2</sub> O-0,146; KJ-0,083; NaWO <sub>4</sub> ×H <sub>2</sub> O- 0,033; NiSO <sub>4</sub> (NH <sub>4</sub> )SO <sub>4</sub> ×6H <sub>2</sub> O-0,198.	
4.	<b>Modifikatsiya yalangan Tamiya ozuqa muhiti №2</b>	(NH <sub>4</sub> ) <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> -3,0; MgSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-3,75; KH <sub>2</sub> PO <sub>4</sub> -1,87; FeSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-0,0045; EDTA-0,185. Mikroelementlar eritmasi - 1 ml: g/l: H <sub>3</sub> BO <sub>3</sub> -2,86; MnCl <sub>2</sub> ×4H <sub>2</sub> O-1,81; ZnSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-0,222; MoO <sub>3</sub> -176,4 mg/10l; NH <sub>4</sub> VO <sub>3</sub> -229,6 mg/10 l; CuSO <sub>4</sub> ×5H <sub>2</sub> O-0,01 mg/l; Co(NO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> ×4H <sub>2</sub> O-0,146; KJ-0,083; NaWO <sub>4</sub> ×H <sub>2</sub> O- 0,033; NiSO <sub>4</sub> (NH <sub>4</sub> )SO <sub>4</sub> ×6H <sub>2</sub> O-0,198.	Mitishev i dr., 2017
5.	<b>CHu - 13 ozuqa muxiti</b>	KNO <sub>3</sub> -0,2, K <sub>2</sub> HPO <sub>4</sub> -0,04, MgSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-0,1, CaCl <sub>2</sub> ×6H <sub>2</sub> O-0,08, temir sitrat-0,01, limon kislotasi – 0,1, bor-0,5 ppm, MnSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-0,5 ppm, CuSO <sub>4</sub> × 5H <sub>2</sub> O-0,02 ppm, CoCl <sub>2</sub> ×2H <sub>2</sub> O-0,02 ppm, Na <sub>2</sub> MoO <sub>4</sub> ×2H <sub>2</sub> O-0,02 ppm, pH 7,5.	Bozorova va boshqalar., 2021
6.	<b>Chu -10 ozuqa muhiti</b>	Na <sub>2</sub> SiO <sub>3</sub> ×9H <sub>2</sub> O-5; Ca(NO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> ×4H <sub>2</sub> O-57,56; K <sub>2</sub> HPO <sub>4</sub> -10; MgSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O- 25; Na <sub>2</sub> CO <sub>3</sub> -20; Vitamin B12 – 5mg/5 ml suvda tayyorlanadi; Biotin – 1 mg/10ml suvda tayyorlanadi. Na <sub>2</sub> EDTA×2H <sub>2</sub> O-1.00; Temir sitrat-6,00; Limon kislota-6,00; H <sub>2</sub> SeO <sub>3</sub> -0,163. pH Na <sub>2</sub> SiO <sub>3</sub> ×9H <sub>2</sub> O bilan to‘g‘irlanadi. Agarda temir sitrat yoki limon kislota bo‘lmasa FeCl <sub>3</sub> ×6H <sub>2</sub> O-3,15 g/l va Na <sub>2</sub> EDTA×2H <sub>2</sub> O-4,36 g/l, 1litrga 1 ml solinadi. Metal elementlari (g/l): H <sub>3</sub> BO <sub>3</sub> -2,86; MnCl <sub>2</sub> ×4H <sub>2</sub> O-1,81; ZnSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-0,222; Na <sub>2</sub> MoO <sub>4</sub> ×2H <sub>2</sub> O-0,390; CuSO <sub>4</sub> ×5H <sub>2</sub> O-0,079; Co(NO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> ×6H <sub>2</sub> O-0,0494.	Stein., 1973
7.	<b>Hoagland’s ozuqa muhiti</b>	(NH <sub>4</sub> ) <sub>2</sub> NO <sub>3</sub> -0,115; H <sub>3</sub> BO <sub>3</sub> -0,008; Ca(NO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> – 0,656; CuSO <sub>4</sub> – 0,08 mg; Fe(C <sub>4</sub> H <sub>4</sub> O <sub>6</sub> ) <sub>3</sub> -0,005; MgCl <sub>2</sub> – 0,24; MnCl <sub>2</sub> -0,016 mg; KNO <sub>3</sub> – 0,3; ZnSO <sub>4</sub> -0,22 mg.	Andersson., 2005

8.	<b>BG-11 ozuqa muhiti</b>	NaNO <sub>3</sub> -1,5 CaCl <sub>2</sub> ×2H <sub>2</sub> O-0,036 Temir ammoniy sitrat-0,012; EDTA×Na <sub>2</sub> ×2H <sub>2</sub> O-0,001; K <sub>2</sub> HPO <sub>4</sub> -0,04; MgSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-0,075; Na <sub>2</sub> CO <sub>3</sub> -0,02; Mikroelementlar eritmasi - 1 ml/l: H <sub>3</sub> BO <sub>3</sub> -2,86; MnCl <sub>2</sub> ×4H <sub>2</sub> O-1,81; ZnSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-0,222; Na <sub>2</sub> MoO <sub>4</sub> ×2H <sub>2</sub> O-0,39; CuSO <sub>2</sub> ×5H <sub>2</sub> O-0,079; Co(NO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> ×6H <sub>2</sub> O-0,049	Ji Won Hong et al., 2016
9.	<b>Bold bazal ozuqa muhiti (Bold's Basal Medium (BBM))</b>	NaNO <sub>3</sub> -25; CaCl <sub>2</sub> ×2H <sub>2</sub> O-2,5; MgSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-7,5; K <sub>2</sub> HPO <sub>4</sub> -7,5; KH <sub>2</sub> PO <sub>4</sub> -17,5; NaCl-2,5; EDTA (31 g KOH)- 50; FeSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O (1 ml H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> )-4,98; H <sub>3</sub> BO <sub>3</sub> -11,42; ZnSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-8,82; MnCl <sub>2</sub> ×4H <sub>2</sub> O-1,44; CuSO <sub>4</sub> ×5H <sub>2</sub> O-1,57; Co(NO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> ×6H <sub>2</sub> O-0,49	Anderso n., 2005
10 .	<b>Zarruk ozuqa muhiti</b>	NaHCO <sub>3</sub> -16,8; K <sub>2</sub> HPO <sub>4</sub> ×3H <sub>2</sub> O- 1,0; NaNO <sub>3</sub> - 2,5; K <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> - 1,0; NaCl - 1,0; MgSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O- 0,2; CaCl <sub>2</sub> ×2H <sub>2</sub> O- 0,04; Fe+EDTA-1,0 ml; 1-mikroelementlar eritmasi (g/l): H <sub>3</sub> BO <sub>3</sub> -2,86; MnCl <sub>2</sub> ×4H <sub>2</sub> O-1,81; ZnSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-0,22; CuSO <sub>4</sub> ×5H <sub>2</sub> O-0,08; MoO <sub>3</sub> -0,015. 2-mikroelementlar eritmasi (g/l): NH <sub>4</sub> VO <sub>3</sub> - 0,023; K <sub>2</sub> Cr <sub>2</sub> (SO <sub>4</sub> ) <sub>4</sub> ×24H <sub>2</sub> O - 0,096; NiSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O - 0,048; Na <sub>2</sub> WO <sub>4</sub> ×2H <sub>2</sub> O - 0,018; Ti <sub>2</sub> (SO <sub>4</sub> ) <sub>3</sub> - 0,040; Co(NO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> ×6H <sub>2</sub> O -0,044.	Anderso n., 2005

Algologik ob'ektlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish uchun ba'zi bir texnologik ko'rsatkichlar sifatida, standart qiymatlar qabul qilindi, jumladan, barcha ozuqa muhitlarining muhit ko'rsatkichlari rN-6,8 qilib olindi. Ob'ektlarning havo bilan ta'minlanish jarayoni uchun 50 m<sup>3</sup>/l hisobida havo purkash orqali berib turildi. SHuningdek, har kuni ikki marotaba umumiy hajmga nisbatan 1% miqdorida SO<sub>2</sub> purkash orqali berib borildi. SHuningdek, barcha tadqiqotlar kamida uch marotaba takrorlanib, olingan natijalar Fisher qiymatlari asosida tahlil qilindi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Özdemir., 2016
- 2.Thomas G.TopHabene et al., 1985; Kiran et al., 2021
- 3.Muzaffarov i dr., 1984; Saikia et al., 2011; Alejandra Sánchez-Bayo et al., 2020; Charmaine Lloyd et al., 2021.

## VOLUME-1, ISSUE-10

- 4.Cabanelas et al., 2016; Rahman et al., 2022
- 5.Halil Berberoglu et al., 2009; Miao G. Et al., 2015.
- 6.Maltsev et al., 2021; Sun et al., 2023.
- 7.Yu Yu et al., 2017; Alain Aminot et al., 2000.
- 8.Mutum et al., 2023.
- 9.Ferreira et al., 2017; Rinawati et al., 2020; Sampath et al., 2017.
10. Tokhirov B.B., Mustafoev X., Tagayeva M.B. Production of microscopic always, their use in livestock and poultry // Ekonomika i sotsium. 2021, №. 4-1. p.426-427.
11. Xodjimurodova N.R., Xakimova N.X., Togaeva M.V. Buxoro voxasi sugoriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlarida mikroorganizmlar faolligi // Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari tuplami.Guliston, 2020. 166 b.
- 12.M.B. Togaeva, Z.T.Safarova, N.A.Azizova. Main sources of increasing the productivity of alluvial soils of medium salt grazine of bukhara region // JoupHalNX. – T. 6. – №. 06. p. 88-93.
- 13.Xodjimurodova N., Xakimova N., Tagaeva M. Biologicheskaya aktivnost pochv Buxarskogo oazisa v zavisimosti ot stepeni. Toshkent, 2020, c. 1061-1064.
- 14.Anderson R.A. 2005. Algal culturing Techniques. Elsevier Academic Press, San Diego CA., USA. Pp.589.
- 15.Beale S.I. Enzymes of chlorophyll biosynthesis. Photosynthesis Research, 1999, 60: 43-73 (doi: 10.1023/A:1006297731456).
- 16.Nakagawara E., Sakuraba Y., Yamasato A., Tanaka R., Tanaka A. Clp protease controls chlorophyll b synthesis by regulating the level of chlorophyllide a oxygenase. Plant J., 2007, 49: 800-809 (doi: 10.1111/j.1365-313X.2006.02996.x).
- 17.Sakuraba Y., Yokono M., Akimoto S., Tanaka R., Tanaka A. Deregulated chlorophyll b synthesis reduces the energy transfer rate between photosynthetic pigments and induces photodamage in *Arabidopsis thaliana*. Plant Cell Physiol., 2010, 51: 1055-1065 (doi: 10.1093/pcp/pcq050).
- 18.Elizarova V.A. 1974. Soderjanie fotosinteticheskix pigmentov v edinitse biomassyi fitoplanktona / V.A. Elizarova // Trudy in-ta biol. vnutr. vod. – L., 1974. – Вып. 28 (31). – С. 46–64.
- 19.Dere S., Guenes T., Sivaci R. 1998. Spectrophotometric determination of chlorophyll – A, B and total carotenoid contents of some algae species using different solvents. Tr. J. of Botany. 22: 13–17.

## VOLUME-1, ISSUE-10

20. Elizarova V.A. Soderjanie fotosinteticheskix pigmentov v fitoplanktone vodoèmov raznogo tipa: avtoref. dis. kand. biol. nauk: 03.00.18 / V.A. Elizarova; Institut biologii vnutrenníx vod AN SSSR. – Moskva, 1975. – 24 s.

21. Muzafarov A. M., Taubaev T. T. Kultivirovaniye i primenenie mikrovodorosley //Tashkent: Fan UzSSR. – 1984.

22. Mutum et al., 2023

23. Alain Aminot et al., 2000

*Habibullayev Baxtiyor Abdulvoxid o'g'li*

*Namangan muhandislik-qurilish instituti o'qituvchisi*

*email: [abdulvokhidovich@gmail.com](mailto:abdulvokhidovich@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola horijning sarmoyalarni jalg qilish bo'yicha sayohati natijasida olingan usullar, natijalar va tushunchalarni o'rganadi. Ularning tajribalarini o'rganib, biz investitsiya imkoniyatlarini izlayotgan boshqa korxonalarga foya keltiradigan asosiy strategiya va amaliyotlarni ochishimiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** Investitsiya, moliyalashtirish, startaplar, horij, vechur kapitali, pitching, moliyalashtirish turlari, investor munosabatlari.

**Аннотация.** В этой статье рассматриваются методы, результаты и идеи, полученные в результате путешествия хориджа по привлечению инвестиций. Изучая их опыт, мы можем выявить ключевые стратегии и практики, которые принесут пользу другим предприятиям, ищущим инвестиционные возможности.

**Ключевые слова:** инвестиции, финансирование, стартапы, зарубежный, венчурный капитал, качка, виды финансирования, отношения с инвесторами.

**Annotation.** This article explores the methods, results, and concepts obtained from horij's journey to invest. By studying their experiences, we can open up basic strategies and practices that will benefit other businesses looking for investment opportunities.

**Keywords:** investment, financing, startups, foreign, venture capital, pitching, types of financing, investor relations.

Investitsiyalarni jalg qilish ko'pincha startaplar va o'sib borayotgan biznesning qonidir. U kengaytirish, mahsulotni ishlab chiqish va bozorga kirish uchun zarur kapitalni ta'minlaydi. Horij, istiqbolli texnologik startap, murakkab investitsiya dunyosini muvaffaqiyatli boshqargan kompaniyaning ajoyib namunasi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada biz horijning sayohatini ko'rib chiqamiz, ularning usullari, natjalari va moliyalashtirishni ta'minlashga qaratilgan boshqa tadbirkorlar va korxonalarga taqdim etadigan qimmatli saboqlarini o'rganamiz.

Horijning investitsiyalarni jalg qilishdagi muvaffaqiyatini strategik yondashuvlar va samarali amalga oshirishning kombinatsiyasi bilan bog'lash mumkin. Horij tomonidan qo'llaniladigan ba'zi asosiy usullar:

## VOLUME-1, ISSUE-10

- Keng qamrovli biznes-reja: Horij puxta ishlab chiqilgan biznes-rejani ishlab chiqdi, bu ularning qarashlari, bozor salohiyati va daromad prognozlarini namoyish etdi. Ushbu reja ularning investor maydonlari uchun asos bo'lib xizmat qildi.
- Maqsadli Pitching: keng to'rni tashlash o'rniga, Horij o'z sanoatida startaplarni moliyalashtirish bo'yicha tajribaga ega bo'lgan investorlarni nishonga oldi. Ular o'z maydonlarini har bir investoring o'ziga xos manfaatlari va muammolarini hal qilish uchun moslashtirdilar.
- Munosabatlarni o'rnatish: potentsial investorlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatish ustuvor vazifa edi. Horij jamoasi sanoat tadbirlarida qatnashdi, tarmoq faoliyatida qatnashdi va investorlarning istiqbollari bilan muntazam aloqada bo'ldi.
- Kontseptsianing isboti: Horij katta mablag ' izlashdan oldin, hayotiy mahsulotni namoyish etishga va bozorda o'ziga jalb etishga e'tibor qaratdi. Bu nafaqat investorlar uchun sezilgan xavfni kamaytirdi, balki ularning muzokaralar pozitsiyasini mustahkamladi.
- Shaffoflik va ishonch: Horij investorlar bilan munosabatlarida doimiy ravishda shaffoflikni saqlab qoldi. Ular kompaniyaning taraqqiyoti, moliyaviy salomatligi va duch kelgan muammolar haqida muntazam yangilanishlarni taqdim etdilar.

Horijning investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha bag'ishlangan sa'y-harakatlari ajoyib natijalar berdi:

Moliyalashtirish bosqichlari: Horij ikkita moliyalashtirish bosqichini muvaffaqiyatli yakunlab, jami 5 million dollarlik investitsiya kapitalini ta'minladi. Ushbu mablag ' ularga o'z faoliyatini kengaytirish, yuqori iste'dodlarni yollash va mahsulot ishlab chiqarishni tezlashtirishga imkon berdi.

Bozorni kengaytirish: kapital qo'shilishi bilan Horij bozorni kengaytirdi va yangi geografik hududlarga kirdi. Bu ularning mijozlar bazasini sezilarli darajada oshirishga olib keldi.

Mahsulot innovatsiyasi: qo'shimcha kapital horijga tadqiqot va ishlanmalarga sarmoya kiritishga imkon berdi, bu esa ularni bozorda yanada farqlaydigan yangi, innovatsion mahsulotlarni joriy etishga olib keldi.

Horijning tajribasi investitsiyalarni muvaffaqiyatli jalb qilishga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan bir qancha asosiy omillarni ta'kidlaydi:

Strategik rejalahtirish: investitsiyalarni qidirishda puxta o'ylangan biznes-reja va strategiya juda muhimdir. Investorlar rentabellikka aniq yo'lni ko'rishni xohlashadi.

## VOLUME-1, ISSUE-10

Investorlar bilan aloqalar: potentsial investorlar bilan munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirish sizning moliyalashtirishni ta'minlash imkoniyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Ishonch va munosabatlar juda muhimdir.

Kontseptsianing isboti: hayotiy mahsulot yoki xizmatni namoyish etish va bozorni jalb qilish investorlarning xavfini sezilarli darajada kamaytirishi va sizning maydoningizni yanada jozibador qilishi mumkin.

Shaffoflik: investorlar bilan ochiq va halol muloqot ishonch va ishonchni kuchaytiradi. Kompaniyaning taraqqiyoti va muammolari haqida muntazam yangilanishlar juda muhimdir.

### Xulosalar:

Horijning investitsiyalarni jalb qilishdagi sayohati strategik va yaxshi bajarilgan yondashuvning muhimligini ko'rsatadi. Qattiq biznes-reja, maqsadli pitching, munosabatlarni o'rnatish va shaffoflikni birlashtirib, ular raqobatbardosh bozorda o'sish va rivojlanish uchun zarur bo'lgan mablag'ni ta'minlashga muvaffaq bo'lishdi. Ularning muvaffaqiyati investitsiya imkoniyatlarini izlayotgan boshqa startaplar va korxonalar uchun qimmatli Ilhom va yo'l-yo'riq manbai bo'lib xizmat qiladi.

Horijning investitsiyalarni jalb qilishdagi muvaffaqiyatini takrorlash uchun korxonalar quyidagi takliflarni ko'rib chiqishlari kerak:

- Mustahkam biznes-reja ishlab chiqish: sizning tuyulgan bayon keng qamrovli ish rejasi Craft, bozor imkoniyat, va moliyaviy prognozlar.
- Maqsadli yondashuv: sizning sohangiz yoki sektoriningga chinakam qiziqish bildiradigan investorlarni aniqlang va yo'naltiring.
- Aloqalar o'rnatish: tarmoq va muntazam muloqot orqali potentsial investorlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatish uchun vaqt va kuch sarflang.
- Tushunchangizni isbotlang: muhim mablag' izlashdan oldin mahsulotingiz yoki xizmatingizning bozorda hayotiyligini isbotlashga e'tibor qarating.
- Shaffoflikni saqlang: investorlar bilan munosabatlarda shaffof va halol bo'ling, ularga taraqqiyotingiz va muammolaringiz haqida muntazam yangilanishlarni taqdim eting.

Ushbu takliflarga rioya qilish va Horij kabi kompaniyalarning tajribalarini o'rganish orqali korxonalar muvaffaqiyatga erishish va rivojlanish uchun zarur bo'lgan sarmoyalarni jalb qilish imkoniyatlarini oshirishi mumkin.

## VOLUME-1, ISSUE-10

### Adabiyotlar.

1. "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. 1998 yil 30 aprel. 3-modda.
2. Dictionary of International Trade. Global Marketing Strategies, 2015, p.82.
3. G'ozibekov D. G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: "Moliya", 2003, 45 bet.
4. Qo'ziyeva N.R. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'bathantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. Iqt. fan. dok. ilm. dar. olish uchun yoz. diss. avtoref. – T.: BMA, 2008, 11 bet.
5. Fozilchayev Sh.Q., Xidirov N.G'. Investitsiya va lizing asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: Moliya, 2017 yil, 22 bet

## VOLUME-1, ISSUE-10

### Qoraqalpog‘istonning sho‘rlangan tuproqlarda bo‘tako‘z o‘simligini xalq tabobatida qo‘llanishning ahamiyati

A.Sa’rsenbaev


Qoraqalpoq davlatt universiteti Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishslash texnologiyasi 2-Magistr (Nukus, Qoraqalpog‘iston)

**Annotatsiya:** Dorivor bo‘tako‘z o‘simligi dunyoda dorivorlik xususiyati bilan qadrlanadi. Asosan, Evropa mamlakatlarida, janubiy va shimoliy Amerika, boldiq boyi mamlakatlarida shu bilan birga, Turkiya mamlakatida *Centaurea L* ning 179 turi o‘stiriladi. Asosan xalq tabobatida va tibbiyotda gullari ishlatiladi. O‘zbekiston ayrim hududlarida bog‘larda, o‘tloqlarda, ekinlar orasida ushratish mumkin.

**Ka’lit so‘zlar.** Dorivor, o‘sadi, ekiladi, tibbiyot, xalq tabobati,

O‘zbekiston Respublikasida Dorivor o‘simliklarini yetishtirish kata etibor berilmoxda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 20.05.2020 yil PQ-254-son qarori “Dorivor o‘simliklarni Madaniy holda yetishtirish va qayta ishslash hamda davolash ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan shu bilan birligikta, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 26.11.2020 PQ-4901-sonli qarori “Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishslash, ularning urug‘chilagini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ko‘lmini kengaytirishga oid chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus va xo‘jayli tumanlarida dorivor Bo‘tako‘z o‘simligini yetishtirishga kata e’tibor qarailmoqda.

